XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-023-12-218-K/24 Tuproqqal'a tumani

Tuproqqal’a tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddasi,O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli qonuniga muvofiq hamda xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq va Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-7-09/12559-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 73976984,0 ming so‘m va xarajatlari 73976984,0 ming so‘mni tashkil qilgani ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. 2025-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq; aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) tuman budjeti hamda viloyat mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlari, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy istehmolchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tuman budjeti hamda viloyat mahalliy budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4.Quyidagilar:

Tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognozko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

tumannig tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari 3-ilovaga;

mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumanning tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. Tumanning tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 864601,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda:

tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armasi tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foiz miqdorida shakllantirilsin;

tuman budjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

7. Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari bo‘yicha 2025-yil uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

8. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (S.Sultanov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Atabayev), tuman soliq inspektsiyasi (S.Ruzimova) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil uchun mahalliy budjeti ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Barcha mas’ul bo‘lim va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10.Tuman soliq inspektsiyasi (S.Ruzimova) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya‘ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (M.Iskandarov), tuman soliq inspektsiyasi (S.Ruzimova) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘icha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Tuman Suv yetkazib berish xizmati DM (I.Ibragimov) va tuman soliq inspektsiyasi (S.Ruzimova) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olinishini ta’minlasinlar.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

13. Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Raxmetov), tuman adliya bo‘limi (Sh.Boltayeva) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

14. Tuman soliq inspektsiyasi (S.Ruzimova), tuman qishloq xo‘jalik bo‘limi (T.Alimov) tuman hokimining birinchi o‘rinbosari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

15. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

16. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida tuman Kengashiga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat olib borilishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlar joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

17. Tuman hokimligi qarorda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si” raisi I.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



JIMALYAZOV AKMAL ORTIQOVICH

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-12-218-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tuproqqal’a tumani mahalliy budjet 2025-yil uchun daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

Daromad turlari		**Miqdori**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	26,673,600.0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6,351,000.0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	467,000.0
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	10,028,000.0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2,462,000.0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3,777,584.0
7	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	13,305,000.0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliq	4,506,000.0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	10,000.0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6,228,800.0
11	Qishloq xo'jaligi korxonalarining suv solig'i	0.0
12	Qishloq xo'jaligi korxonalarining suv solig'ining 40 foizini qaytarish (PQ-5) (VMQ-79)	1,153,200.0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	168,000.0
JAMI		**73,976,984.0**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-12-218-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Tuproqqal’a tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga 2025-yil uchun ajratiladigan mablag‘larning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**73,976,984.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	52,338,410.0
	zaxira jamg’armasi	864,601.0
	tashabbusli budjet jamg’armasi	20,190,973.0
	mahalla budjeti jamg’armasi	583,000.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
1	**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari**	**10,125,650.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	10,125,650.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
2	**Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari**	**7,717,503.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	7,717,503.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
3	**Musiqa va san’at maktabi**	**2,078,435.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	2,078,435.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0

4	**Madaniyat bo‘limi**	**575,337.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	575,337.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
5	**Axborot-kutubxona markazi**	**392,792.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	392,792.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
6	**Sport maktabi**	**3,184,763.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	3,184,763.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
7	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"**	**11,550.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	11,550.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
8	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**94,341.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	94,341.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
9	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**12,584,938.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	12,584,938.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
10	**Suv yetkazib berish xizmati DM**	**894,839.0**

	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	894,839.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
11	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzuridagi Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi**	**212,514.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	212,514.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
12	**Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi DM**	**490,220.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	490,220.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
13	**O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi**	**583,000.0**
	шу жумладан:	
	“Mahalla budjeti” jamg’armasi	583,000.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
14	**Hokimyat**	**24,363,245.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	3,307,671.0
	zaxira jamg’armasi	864,601.0
	“Tashabbusli budjet” jamg’armasi	20,190,973.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
15	**Xalq qabulxonasi**	**41,452.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	41,452.0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
16	**Hokim yordamchilari**	**2,019,858.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	2,019,858.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
17	**Xotin-qizlar faollari**	**996,110.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	996,110.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
18	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2,094,515.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	2,094,515.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
19	**Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati**	**254,933.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	254,933.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
20	**Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘limi**	**1,925,394.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	1,925,394.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0
21	**Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi**	**2,423,017.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	2,423,017.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital	0.0

	qo‘yilmalar	
22	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**912,578.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	912,578.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0.0

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-12-218-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy istehmolchilarga realizatsiya qilishdagi to'lanadigan aktsiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		tuman (shahar)lar budjetiga		viloyatning viloyat budjetiga		tuman (shahar)lar budjetiga		viloyatning viloyat budjetiga		tuman (shahar)lar budjetiga		viloyatning viloyat budjetiga		tuman (shahar)lar budjetiga		viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Tuproqqal'a tumani	0%	80%	100%	20%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

foiz hisobida

Qurilish materiallari bo‘yicha yer qahridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Aylanmadan olinadigan soliq		Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
tuman (shahar)lar budjetiga		viloyatning viloyat budjetiga		tuman (shahar)lar budjetiga		viloyatning viloyat budjetiga		tuman (shahar)lar budjetiga	viloyatning viloyat budjetiga	tuman (shahar)lar budjetiga	viloyatning viloyat budjetiga	tuman (shahar)lar budjetiga	viloyatning viloyat budjetiga
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB						

0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

foiz hisobida

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar	
tuman (shahar)lar budjetiga	viloyatning viloyat budjetiga	tuman (shahar)lar budjetiga	viloyatning viloyat budjetiga
100%	0%	100%	0%

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-12-218-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetining 2025- yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

(ming so‘mda)

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**73,976,984.0**	**73,976,984.0**
Tuproqqal’a tumani	73,976,984.0	73,976,984.0

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-12-218-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetida 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

(ming so‘mda)

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**481,000.0**
	shundan	
1	Tuproqqal’a tumani	481,000.0

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-12-218-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Tuproqqal’a tumanidagi yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari bo‘yicha 2025-yil uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdori

(ming so‘mda)

T/r	Tuman nomi	Yuridik shaxslarning bino va inshoatlarining 1 kv.metr uchun mutloq miqdori	Koeffitsent (1,0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning bino va inshoatlarining 1 kv.metr uchun mutloq miqdori
1	Tuproqqal’a tumani	1300.0	0.70	910.0